Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilinib, mustaqil ta'lim faoliyatining samaradorligini oshirishda didaktik yondashuvlar va ilg'or ilmiy modellarning ahamiyati yoritilgan. Maqolada zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish va ularning talabaning o'z-o'zini rivojlantirishdagi roli ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali ochib berilgan. Shuningdek, talabalarning o'quv motivatsiyasi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari va reflektiv tahlil qilish imkoniyatlarini kuchaytirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda integrativ va konstruktivistik yondashuvlar, shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonini raqamlashtirish orqali innovatsion didaktik modellarni qo'llash samaradorligi tahlil etilgan. Xulosa o'rnida muallif talabalar mustaqil tayyorgarligini qo'llab-quvvatlash uchun tavsiya etiladigan ilmiy-metodik yondashuvlarni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, mustaqil tayyorgarlik, raqamli ta'lim platformalari, motivatsiya, didaktik yondashuvlar, ilg'or ilmiy modellar.

Abstract: This article analyzes the scientific and methodological foundations for enhancing students' self-preparation in the context of digital education. It highlights the importance of didactic approaches and advanced scientific models in increasing the effectiveness of self-directed learning. The study explores the use of modern digital platforms and their role in supporting student autonomy and academic development through scientifically grounded approaches. Special attention is given to strategies that foster learning motivation, independent thinking skills, and reflective analysis among students. Integrative and constructivist approaches are examined, along with the effectiveness of applying innovative didactic models facilitated by the digitalization of the self-learning process. In conclusion, the author proposes a set of scientifically grounded methodological recommendations to support and enhance students' independent preparation.

Key words: independent education, self-preparation, digital educational platforms, motivation, didactic approaches, advanced scientific models.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-методические основы развития самостоятельной подготовки студентов в условиях цифрового образования. Особое внимание уделяется дидактическим подходам и передовым научным моделям, способствующим повышению эффективности самостоятельного обучения. В статье анализируется использование современных цифровых платформ и их роль в саморазвитии студентов с применением научно обоснованных подходов. Также рассматриваются вопросы повышения учебной мотивации, развития навыков самостоятельного мышления и рефлексивного анализа. В исследовании изучаются интегративные и конструктивистские подходы, а также эффективность применения инновационных дидактических моделей в условиях цифровизации процесса самообучения. В заключение автор предлагает научно обоснованные методические рекомендации по поддержке и совершенствованию самостоятельной подготовки студентов.

Ключевые слова: самообразование, самостоятельная подготовка, цифровые образовательные платформы, мотивация, дидактические подходы, передовые научные модели.

KIRISH

XXI asrga kelib, ta'lim tizimida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ta'lim platformalari va interaktiv resurslarning jadal rivojlanishi nafaqat o'quv jarayonini, balki o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatni ham tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda asosiy e'tiborni "o'qitish"dan → "o'rganish"ga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda ^[1]. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning faol ishtirokiga, o'z bilimini mustaqil ravishda izlash, anglash va amaliyotda qo'llashga qaratilgan o'quv jarayonini tashkil etishni taqozo qilmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida o'quv jarayonining asosiy maqsadi talabalarga tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki ularni mustaqil ta'lim olish, o'rganish faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish ko'nikmalari bilan qurollantirishdan iborat bo'lmoqda. Bu jihat o'z-o'zini rivojlantirish, axborotni mustaqil izlab topish, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va zamonaviy kasbiy faoliyatda raqobatbardosh bo'lish uchun muhim omil sanaladi.

Zamonaviy mehnat bozori va ish beruvchilarning talablaridan kelib chiqilsa, bugungi bo'lajak mutaxassislar nafaqat oliy ta'lim muassasasida bilim olish bilan cheklanmasligi, balki "lifelong learner", ya'ni umr bo'yi o'rganishga tayyor, o'z ustida doimiy ishlovchi, yangi texnologiyalar va bilimlarni tezda o'zlashtira oladigan shaxs bo'lishi talab etiladi. Ushbu talablar, o'z navbatida, ta'lim tizimida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishini taqozo etadi. Bu esa, talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning dasturiy-didaktik ta'minotini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot mavzusining "Raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning dasturiy-didaktik ta'minotini takomillashtirish" deb nomlanishi bejiz emas. Bu nom zamonaviy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, mehnat bozorining talablari va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish zaruratidan kelib chiqqan holda, amaliy va nazariy jihatdan dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda raqamli ta'lim sharoitida mustaqil o'rganish faoliyatini tashkil etish va uni samarali boshqarish masalalari xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda dolzarb mavzulardan biri sifatida keng yoritilmoqda. Pedagogika va ta'lim texnologiyalari sohasidagi ko'plab tadqiqotlar mustaqil ta'limni shaxsga yo'naltirilgan, reflektiv va faoliyatga asoslangan yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, talabani bilish subyekti sifatida rivojlantirish, o'z-o'zini tahlil qilish va nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarurati ilgari surilmoqda. Raqamli texnologiyalar esa bu jarayonlarni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida baholanmoqda. Bu borada olib borilgan ilmiy ishlarda masofaviy o'qitish, raqamli platformalarda ta'lim resurslarini moslashtirish, o'quv materiallarini individual ehtiyojlarga muvofiqlashtirish va o'z-o'zini rivojlantirishga xizmat qiluvchi modellarni joriy etish bo'yicha turli yondashuvlar ilgari surilgan. Shu bilan birga, mustaqil ta'limga doir yondashuvlar asosan talabaning tayyorgarlik darajasi, motivatsiyasi, metakognitiv faolligi va ijtimoiy-psixologik muhit bilan bog'liq holatlarda farqlanishini ko'rsatadi. Ayniqsa, mahalliy olimlardan N. Muslimov, M. Mamarajabovlarning ilmiy qarashlari, xorijiy olimlardan esa Malcolm Knowles, Gerald Grow va Marcelo Staricoffning ilmiy izlanishlari bu yo'nalishda chuqur nazariy va amaliy asoslarni taqdim etadi. Ularning tadqiqotlari raqamli ta'lim kontekstida mustaqil tayyorgarlikni rivojlantirishning samarali strategiyalarini aniqlash va dasturiy-didaktik ta'minotni takomillashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur maqolada aynan ushbu olimlarning ilmiy qarashlarini chuqur tahlil qilish muhim metodologik zarurat sifatida qaraladi. P.f.d., prof. N. A. Muslimovning mustaqil ta'limga oid qarashlari kasbiy ta'lim sohasidagi pedagogik yondashuvlarning murakkab, lekin zarur elementlarini ilmiy asosda yoritib beradi. Uning fikricha, mustaqil ta'lim – bu talabaning fan doirasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni o'qituvchi ishtirokisiz, balki o'zining intellektual faolligi orqali o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bu jarayonda talabaning avtonomligi, ya'ni ta'lim maqsadi, mazmuni, uslublari va vositalarini mustaqil tanlashi, faoliyatni rejalashtirishi va baholashi muhim hisoblanadi ^[2]. Muslimov talabaning mustaqil faoliyatida axborot resurslaridan foydalanish, referat va ilmiy maqolalar tayyorlash, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rish kabi ko'plab shakllarni ilgari suradi. U mustaqil ta'limni nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish vositasi, balki talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, tanqidiy fikrlash qobiliyati, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmasini shakllantiruvchi muhim omil sifatida ko'radi.

Olim mustaqil ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun didaktik, pedagogik va texnologik shartlar muhimligiga e'tibor qaratadi. U muammoli vaziyatli topshiriqlarni ta'lim jarayonining asosiy vositasi sifatida ko'rsatadi va ular orqali talabalarda masala yechish, tahlil qilish, tushuncha shakllantirish, umumlashtirish va bashorat qilish kabi intellektual amallarni shakllantirish imkoniyatini ta'kidlaydi. P.f.d., prof. M. E. Mamarajabovning mustaqil ta'lim to'g'risidagi ilmiy qarashlariga ko'ra, mustaqil ta'lim – bu faqatgina talabaning o'z-o'zidan bilim olishi emas, balki uning o'quv jarayonida faol ishtirok etishi, shaxsiy mas'uliyatni his etishi, ta'lim maqsadlarini



belgilashi, o'quv resurslarini tanlashi, faoliyatni rejalashtirishi va natijalarni baholashga qaratilgan murakkab va tizimli jarayondir ^[3]. Ushbu jarayon raqamlashtirilgan ta'lim muhitida talabalarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini mustahkamlash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, o'ziga ishonch va tashabbus ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, shaxsiy o'quv strategiyalarini ishlab chiqish hamda fanlararo hamkorlikni yo'lga qo'yishni nazarda tutadi.

Shuningdek, u mustaqil ta'limni o'qituvchi va talabani teng ishtirokini ta'minlaydigan, innovatsion va raqamli vositalarga asoslangan, interfaol yondashuvni talab etuvchi tizim sifatida talqin qiladi. Xorijiy olimlardan Malcolm Knowles tomonidan ilgari surilgan andragogika nazariyasi ayniqsa raqamli ta'lim kontekstida o'ta muhimdir. U o'quvchining mustaqil ta'limga tayyorlik darajasi, ichki motivatsiyasi, hayotiy tajribasini o'quv manbaiga aylantirish holatlarini asoslab beradi. Knowles fikricha, yetuk ta'lim oluvchi (adult learner) bilimni tayyor shaklda emas, balki muammolarni hal etish orqali o'zlashtiradi. Knowlesning ta'lim nazariyasi beshta asosiy gipotezaga tayanadi, ular mustaqil ta'limning nazariy asoslarini tashkil etadi:

1. **Shaxsiy mustaqillik (Self-concept).** Knowles ta'kidlaganidek, inson voyaga yetishi bilan birga o'zining shaxsiy mustaqilligiga intiladi. Bolalikda ta'lim jarayoni ustoz tomonidan boshqarilsa, katta yoshda inson o'ziga mustaqil ravishda ta'lim maqsadlarini belgilash, qarorlar qabul qilish va o'rganish jarayonini idora qilishga intiladi. Bu gipoteza mustaqil ta'limning markaziy tamoyili bo'lib, kattalar ta'limida o'zini boshqarish qobiliyatini shakllantirishni talab etadi.
2. **Tajribaning roli (Experience).** Katta yoshdagi o'rganuvchilar ko'plab shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy tajribalarga ega bo'lishadi. Ushbu tajriba ularning o'rganish jarayonida asosiy bilim manbai sifatida xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida bu tajribani faol jalb etish orqali shaxsiy anglash, tahlil qilish hamda yangi bilimlar bilan bog'lash imkoni paydo bo'ladi. Bu gipoteza ta'lim jarayonida shaxsiy hayotiy tajribani asosiy resurs sifatida belgilaydi.
3. **O'rganishga tayyorlik (Readiness to learn).** Katta yoshdagi ta'lim oluvchi ma'lum hayotiy vazifalarni bajarish yoki muammolarni hal qilish zarurati tufayli ta'limga ehtiyoj sezadi. Bu jarayon motivatsiyaning tabiiy manbai sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, ta'lim mazmuni o'rganuvchining real hayotiy ehtiyojlariga mos bo'lishi lozim.
4. **O'qish yo'nalishi (Orientation to learning).** Knowles ta'limni vazifa va muammo yechishga yo'naltirilgan jarayon sifatida tasvirlaydi. Kattalar abstrakt bilimlarga emas, balki amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ehtiyoj sezadilar. Demak, ta'lim mazmuni hayotda foydasi tegadigan, real muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu gipoteza amaliy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.
5. **Ichki motivatsiya (Motivation to learn).** Katta yoshdagi o'rganuvchilar ta'lim jarayonida asosan ichki omillar – o'zini rivojlantirish, shaxsiy qiziqish yoki kasbiy o'sish kabi sabablar bilan harakat qilishadi. Bu motivatsiya ta'limni faol va puxta tashkil etishda asosiy drayver (qo'zg'atuvchi kuch) bo'lib xizmat qiladi. Demak, ta'lim jarayoni o'rganuvchining shaxsiy maqsad va qiymatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur.

Mustaqil ta'lim jarayonini tizimlashtirish maqsadida Knowles uni besh bosqichli model shaklida shakllantirdi. Ushbu model kattalarning ta'lim jarayonidagi faolligini kuchaytirishga va ularning shaxsiy o'rganish strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan: o'quv ehtiyojlarini aniqlash (Diagnosing learning needs). O'rganuvchi o'zining bilimidagi bo'shliqlarni, malaka yetishmasligini yoki rivojlantirish kerak bo'lgan sohalarni aniqlashi kerak. Bu jarayon o'z-o'zini baholash, fikr-mulohazalar olish yoki maslahatlar asosida amalga oshirilishi mumkin. O'quv maqsadlarini shakllantirish (Formulating learning goals). O'rganuvchi aniq, o'lchanadigan va maqsadli o'quv natijalarini belgilaydi. Bu bosqich motivatsiyani oshirish va yo'nalishni aniqlashga xizmat qiladi. Inson va moddiy resurslarni aniqlash (Identifying human and material resources for learning). O'rganuvchi qanday manbalardan, kimdan yordam so'rashi, qaysi o'quv materiallaridan foydalanishi mumkinligini aniqlaydi. Bu, jumladan, mutaxassislar, kutubxonalar, onlayn platformalar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

O'quv strategiyasini tanlash va joriy etish (Choosing and implementing learning strategies). O'rganuvchiga mos keladigan o'quv usuli (masalan: kitob o'qish, amaliy mashg'ulotlar, onlayn kurslar) tanlanadi va reja bo'yicha amalga oshiriladi. O'rganish natijalarini baholash (Evaluating learning outcomes). Olingan bilim va ko'nikmalar o'z maqsadiga qanchalik erishganini baholash orqali o'lchanadi. Bu bosqich kelgusi o'rganish jarayonlarini samarali tashkil qilishga yordam beradi.

Gerald Grow esa o'zining Staged Self-Directed Learning Model modeli orqali talabalarning mustaqil ta'limga tayyorgarlik darajasiga qarab o'qituvchining rolini dinamik tarzda aniqlab beradi. Uning modeli orqali raqamli ta'limda talabaga dastlabki bosqichlarda ko'proq yo'naltiruvchi, so'ngra maslahat beruvchi, yakuniy bosqichlarda esa mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekti sifatida yondashish mumkinligi aniqlanadi. Modelda 4 ta ta'lim oluvchi darajasi (Self-Directed Learning Levels) va ularga mos 4 ta o'qituvchi uslubi tasniflangan:

1-jadval: Gerald Growning mustaqil ta'lim modeli bosqichlari

Bosqich	Talaba	O'qituvchi	Asosiy vazifasi
1-bosqich	Nomustaqil / qaram (Dependent)	Raxbariyat Murabbiyi (Authority Coach)	Bilimni to'g'ridan-to'g'ri yetkazish, ko'rsatma berish
2-bosqich	Qiziqgan (Interested)	Motivator, yo'l ko'rsatuvchi (Motivator, guide)	Motivatsiya orqali faollashtirish, maqsad qo'yishni o'rgatish
3-bosqich	Jalb qilingan (Involved)	Yo'naltiruvchi / fasilitator (Facilitator)	Hamkorlikda o'rganish, fikrlash va muloqot orqali tahlil qilish
4-bosqich	Mustaqil (Self-directed)	Konsultant (Consultant, delegator)	Mustaqil loyihalar, individual tadqiqot, rahbar sifatida murabbiylik

Muvaffaqiyatli ta'lim faqatgina o'qituvchi va ta'lim oluvchi to'g'ri "tenglashtirilganda" (match) sodir bo'ladi. Mos kelmaslik (mismatch) holatlarida o'quv jarayoni samarasiz yoki hatto zararli bo'lishi mumkin. Marcelo Staricoffning *The Joy of Not Knowing: A Philosophy of Education Transforming Teaching, Thinking, Learning and Leadership in Schools* (2020) nomli asari ta'limdagi an'anaviy yondashuvlarga qarshi yangi, qadriyatlariga asoslangan, savolga asoslangan o'qitish va o'rganish tizimini taklif etadi. Marcelo Staricoffning "Bilmaslik quvonchi" (*The Joy of Not Knowing, JONK*) falsafasi ta'lim oluvchilarni bilmaslikdan qo'rqmaslikka, balki uni o'rganishga intilishga undovchi zamonaviy ta'limdagi ilg'or yondashuvlardan biri bo'lib, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlovchi falsafiy va metodologik asoslarga ega. Ushbu falsafa ta'lim oluvchining bilimsizlik holatini tabiiy va zarur jarayon sifatida qabul qilishini, hamda aynan shu "bilmaslik" orqali haqiqiy o'rganish sodir bo'lishini ta'kidlaydi.

JONK falsafasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: bilmaslikni qabul qilish va o'rganishga intilish: Ta'lim oluvchilarga bilmaslikdan qo'rqmaslik, balki uni o'rganish imkoniyati sifatida qabul qilishga o'rgatish. O'rganish uchun avval bilmaslik kerakligi tushunchasi ta'limning asosiy g'oyasini tashkil etadi. Bu yondashuv ta'lim oluvchilarda "bilishga intilish" hissini rivojlantirishga yordam beradi. Qadriyatlarga asoslangan ta'lim madaniyati: Ta'lim muassasasida (maktabda) qadriyatlarga asoslangan muhit yaratish, bu esa ta'lim oluvchilarning ijtimoiy va emotsional farovonligini ta'minlaydi.

Falsafiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish: Ta'lim oluvchilarda falsafiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bu esa ularning muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshiradi. Har tomonlama hamkorlik va yetakchilik: Ta'lim oluvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, bu esa ta'lim jarayonini samarali va ijobiy qiladi. O'rganishni o'rganishga bag'ishlangan hafta (Learning to Learn Week): Birinchi haftani o'rganishni o'rganishga bag'ishlash, bu esa ta'lim oluvchilarga ta'lim jarayoniga samarali kirishish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida raqamli ta'lim sharoitida talabalarning mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan dasturiy-didaktik ta'minotni takomillashtirish masalasi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, konstruktivistik va faoliyatga asoslangan yondashuvlar qabul qilindi. Bular o'zaro uyg'un holda, raqamli muhitda mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosini mahalliy va xorijiy pedagog olimlarning mustaqil ta'limga doir qarashlari tashkil etdi. Jumladan, N.A. Muslimov va M.E. Mamarajabovlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlikda mustaqil ta'limni tashkil etish va nazorat qilishga oid metodik tavsiyalari asosida talabaning shaxsiy ta'lim traektoriyasini ishlab chiqish tamoyillari aniqlashtirildi. Malcolm Knowles tomonidan ishlab chiqilgan andragogik model, Gerald Growning bosqichma-bosqich mustaqil ta'limga tayyorgarlik modeli hamda Marcelo Staricoffning qadriyatga asoslangan va savolga yo'naltirilgan o'qitish falsafasi tadqiqotning konseptual asoslarini belgilab berdi.

Tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy tadqiqot uslublaridan foydalanildi:

- Tizimli tahlil usuli: Raqamli ta'limda mustaqil o'rganish faoliyatini tashkil etishga oid mavjud nazariyalar, metodikalar va amaliyotlar o'rganildi hamda ular orasidagi bog'liqliklar aniqlashtirildi;
- Taqqoslash va sintez: Milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, ta'lim platformalari va modellar taqqoslab tahlil qilindi;
- Ekspert baholash: Mutaxassislar fikri asosida taklif qilinayotgan didaktik yondashuv va modellar samaradorligi baholandi;
- Model yaratish: Raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini dasturiy-didaktik ta'minot asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi model taklif etildi;



- Empirik tadqiqotlar: Pedagogik diagnostik testlar va so'rovnomalar orqali talabalarning fikrlari o'rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida pedagogik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar faoliyati tanlandi. Tajriba-sinov ishlariga O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti (Toshkent davlat pedagogika universiteti), Qo'qon davlat universiteti (Qo'qon davlat pedagogika instituti), O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti talabalari jalb qilindi.

Tadqiqotning predmetini raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning dasturiy-didaktik ta'minotini takomillashgan mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi. Metodologik yondashuvlarda, ayniqsa, talabalarning shaxsiy o'sishini qo'llab-quvvatlovchi, o'zini anglash, rejalashtirish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, diqqatni tutib turish, ma'lumotlarni tushunish va qayta ishlash, natijani baholash kabi metakognitiv faoliyatlarni rivojlantiruvchi omillarga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa talabaning raqamli muhitda nafaqat bilim egallashi, balki o'z-o'zini ta'lim subyekti sifatida shakllantirish imkonini beradi [7]. Shunday qilib, tadqiqot raqamli ta'lim sharoitida mustaqil ta'limga oid mavjud yondashuvlarni tahlil qilish, ularni milliy ta'lim muhitiga moslashtirish va asoslangan didaktik takliflar ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lib, amaliy va nazariy jihatdan yuqori ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishda ularning o'z ta'lim faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish ko'nikmalarining shakllanishi muhim o'rin tutadi. Xususan, raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim vositalari, interaktiv o'quv resurslari hamda individual va hamkorlikdagi (peer-to-peer learning) o'rganish uslublaridan kompleks foydalanish talabalarda mustaqil o'rganishga nisbatan ichki motivatsiya va mas'uliyat hissining ortishiga xizmat qilgan. Mustaqil ta'lim faoliyatini individual ravishda tashkil etish orqali talabalar o'zining o'quv maqsadlarini aniqlash, o'z-o'zini baholash va o'quv faoliyatini refleksiv baholash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ayniqsa, birgalikda o'rganish (collaborative learning) va tengdoshlararo o'qitish jarayonlari (peer learning) orqali jamoaviy fikrlash, kommunikatsiya [8], muammoli vaziyatlarni hal qilish, tashabbus ko'rsatish, yetakchilik qilish, vaqtni boshqarish kabi ko'nikmalarining shakllanishi ta'lim oluvchilarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirdi. Bu esa talabaning nafaqat bilim darajasiga, balki uning zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashuvchan shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'zining o'quv faoliyatini ongli ravishda rejalashtirgan va boshqargan talabalar axborotni anglash, saralash va tahlil qilish, bilimlarni turli kontekstda qo'llash, diqqatni jamlash va o'quv vazifalariga strategik yondashish qobiliyatlarini rivojlantira oldi. Ushbu ko'nikmalar esa o'z navbatida transformativ kompetensiyalar – ya'ni o'zgaruvchan muhitga moslashish, yangiliklarga ochiqlik, refleksiv fikrlash, ijtimoiy va kasbiy rolga tayyorlikni shakllantirdi. Shuningdek, tadqiqot asosida talabalarni T-shaklli mutaxassis sifatida yetishtirish imkoniyati asoslab berildi. Bu modelga ko'ra, talabaning "vertikal" yo'nalishi – ya'ni chuqur va puxta kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar, "gorizontal" yo'nalishi esa – keng qamrovli ijtimoiy, kommunikativ, axborot va raqamli kompetensiyalarni o'z ichiga oladi [9]. Umuman olganda, raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish va ularni didaktik jihatdan asoslangan tarzda mustaqil ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalarning o'rganish motivatsiyasi, shaxsiy ta'lim strategiyasi, o'zini anglash, shaxsiy o'sish va kasbiy o'zini namoyon qilish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy muhitda faoliyat yuritishga tayyor, mustaqil qaror qabul qiluvchi va o'z rivojlanishini boshqaruvchi T-shaklli shaxsni shakllantirishda muhim bosqich bo'ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish nafaqat talabalarning bilim darajasini oshirishga, balki ularning mustaqil tayyorgarligi, transversal va transformativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, talabalarning ta'lim jarayonida o'zini anglash, o'z ustida ishlash, vaqtni boshqarish, axborotni tahlil qilish, jamoada ishlash, tashabbus ko'rsatish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalari mustaqil o'rganish faoliyati orqali sezilarli darajada rivojlandi. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar, interaktiv vositalar, peer-to-peer learning va individual o'rganish strategiyalarining uzviy uyg'unlashuvi T-shaklli kadrlarni shakllantirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur natijalar asosida tadqiqot ishi doirasida quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi:

*Birinchi*dan, talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish maqsadida raqamli muhitda modul-integrativ ta'lim platformasini ishlab chiqish taklif etiladi. U talabalarning individual o'quv traektoriyalarini qo'llab-quvvatlash, metakognitiv refleksiya va o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini ta'minlab, raqamli resurslar asosida mustaqil o'rganishni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, peer-to-peer va kollaborativ ta'lim metodikasini raqamli muhitga moslashtirish orqali talabalar o'rtasida o'zaro ta'lim, hamkorlikda muammoni hal qilish, muloqot va tanqidiy fikrlash kabi transversal va transformativ kompetensiyalarni shakllantirish mumkin.

Uchinchidan, talabalarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan raqamli o'quv strategiyalari majmuasini ishlab chiqish zarur bo'lib, bu orqali ular o'z o'rganish jarayonini ongli rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni o'zlashtiradi, shuningdek, shaxsiy ta'lim strategiyalarini shakllantirib, zamonaviy mehnat bozoriga moslashuvchan, reflektiv va T-shaklli mutaxassis sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umarova Z.A. Mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021-yil.
2. Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2007. – 315 b.
3. Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.
4. Knowles, M. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. Chicago, IL: Follett Publishing Company, 1975.
5. Grow, G.O. Teaching learners to be self-directed. *Adult Education Quarterly*, 41, 1991-yil, B. 125–149.
6. Staricoff, M. The Joy of Not Knowing: A Philosophy of Education Transforming Teaching, Thinking, Learning and Leadership in Schools. – 2020.
7. Umarova Z.A. The role of digital technology in developing students' self-readiness in higher educational system. // O'ZMU XABARLARI – Vol. 1, No. 1.6, 2024. <https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.6.3849>
8. Umarova Z.A. O'zbekiston – 2030 strategiyasini amalga oshirishda talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish masalasi. // Xalqaro Nordik universiteti "O'zbekiston – 2030 strategiyasini amalga oshirish yo'nalishlari va istiqbollari yoshlar nigohida" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2024.
9. Umarova Z.A. Effectiveness of organizing students' self-education with the facilities of media resources in educational media environment. // *Revista GEINTEC – Gestão, Inovação e Tecnologias*. – 2021. – T. 11, № 2. – B. 756–764.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.